

References:

1. Ансель М. Методологические проблемы сравнительного права // Очерки сравнительного права. – М., 1981. – С 36-87. Б.И.Эгамбердиев. Improving the activities of internal affairs bodies regarding migration processes. Dissertation. Tashkent 2021.
2. Internet source: <https://www.untsurvey.org/compare-measures> (Application date: 03.11.2023)
3. Internet source: UN Global Survey on Digital and Sustainable Trade Facilitation. 2023
<https://www.untsurvey.org/compare-economies?id=UZB&year=2023&op=1&group=17%2C22%2C24&measures=197%2C219%2C221%2C229%2C230%2C233%2C234%2C242%2C253%2C254%2C255%2C256> (Application date: 03.11.2023)
4. Internet source: https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_ouzbekistan_e.htm (Application date: 03.11.2023)
5. Internet source: <https://www.wcoomd.org/en> (Application date: 03.11.2023)
6. Internet source: <https://www.un.org/ru/about-us/member-states> (Application date: 03.11.2023)
7. Internet source: <https://www.wcoomd.org/en/about-us/wco-members/membership.aspx> (Application date: 03.11.2023)
8. Internet source: <https://e-cis.info/page/3793/> (Application date: 03.11.2023)
9. Internet source: <http://eng.sectesco.org/cooperation/20170110/192193.html> (Application date: 03.11.2023)
10. Internet source: <https://mfa.uz/uz/pages/uzbekistan-and-international-organizations> (Application date: 03.11.2023)

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KAPITAL BOZORINI O‘RNI

Sultonov Javoxir Zaylobidin o‘g‘li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Magistratura va kechki ta‘lim fakulteti talabasi*


O‘zbekiston kapital bozorlari yillar davomida turli xil rivojlanishlarni boshdan kechirmoqda. Tarixan kapital bozorlari odatda asrlar davomida mavjud bo‘lgan aksiya bozorlari deb ham yuritiladi. Kapital bozori subyektlarining investitsion faolligi iqtisodiyotning jadal rivojlanishining muhim omili sanaladi[1].

Bozorning ishlash tizimi, mol-mulk sinflari, almashinuvlar doirasi vaqt o‘tishi bilan rivojlanmoqda. O‘zgarishlar investorlar va bozor ishtirokchilarining qulayligiga ko‘ra bosqichma-bosqich rivojlandi. Shuningdek, bugungi kunda bozor ishtirokchilarining pul imtiyozlarini olish maqsadida ma‘lumotlardan haddan tashqari foydalanishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, butun dunyo bo‘ylab qimmatli qog‘ozlarni tartibga solish organlari bunday harakatlarni kamaytirishning kuzatuv usullariga ega.

Hozirgi rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyot arsenalida barqaror rivojlanish maqsadlarining bir nechta yo‘nalishlari, ya‘ni shaharlar va aholi yashash punktlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta‘minlash hamda iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo‘yicha tezkor choralarni qabul qilish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [2].

“Yashil” iqtisodiyotning ijtimoiy va ekologik zarurati sifatida aytish mumkinki, insoniyat oxirgi o‘n yillikda tabiiy resurslarning kamayishi, tabiiy ofatlar, turli ijtimoiy-siyosiy o‘yinlar, fuqarolarning tabiatga bo‘lgan e‘tiborining pasayishi, daraxtlar va o‘rmonlarning qisqarishi shu bilan birga ekologik

muhitning ifloslanishi kabi turli muammolar qarshisida turibdi. So’ngi yillarda iqlimni moliyalashtirish ya’ni, “yashil” iqtisodiyot siyosatining ko’rsatkichi bosqichma-bosqich o’sib bormoqda va xalqaro miqyosda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi (Green Economy Financing Facility) tomonidan ko’plab loyihalar va tashabbuslar qo’llab quvvatlanmoqda. Bu borada, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O’zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-436-son Qarori [3] qabul qilingan bo’lib, mazkur Qaror ijrosida keltirilgan maqsad va vazifalar kelgusida mamlakat iqtisodiyotini yaxshilashga hamda “yashil” moliya, “yashil” budjet loyihalarini amaliyotga samarali tadbir etish hamda istibolli o’sish tendensiyalariga zamin yaratadi.




1-rasm. Kapital bozorining tuzilishining ma’lum segmentlari [4]

Bundan kelib chiqadiki, kapital bozori asosan quyidagilarga bo’linadi:

Birlamchi bozor: Birlamchi bozor asosan aksiya bozorida birinchi marta chiqariladigan yangi qimmatli qog’ozlar bilan shug’ullanadi. Shunday qilib, birlamchi bozorning asosiy vazifasi yangi chiqarilgan bo’lishni kompaniyalardan aholiga o’tkazishni osonlashtirishdan iborat. Ushbu turdagi bozordagi asosiy investorlar moliya institutlari, banklar va boshqalar.

Ikkilamchi bozor: Qimmatli qog’ozlar savdosi aslida o’tkaziladigan bozor bo’lib, shu tariqa uni aksiya bozori deb ham atash mumkin. Bu yerda qimmatli qog’ozlarni sotib olish va sotish jarayonlari amalga oshiriladi.



2-rasm. Kapital bozorining asosiy moliyaviy vositachilari ketma-ketligi [5]

Tahlil va natijalarga ko’ra, yaqin o’tmishda “Yashil” o’tish O’zbekiston aholisining iqlim o’zgarishiga eng zaif qatlamlari uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bunga ko’ra, shahar haroratning oshishi, tez-tez qurg’oqchilik, suv tanqisligining ortib borishi, cho’llanish va sho’rlanish tahdidlarining kuchayishini o’z ichiga olgan iqlim o’zgarishining prognoz qilingan

oqibatlarini O‘zbekistonning busiz ham qashshoq hududlaridagi hayot darajasiga nomutanosib ravishda ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari o‘z daromadlarining nisbatan yuqori qismini oziq-ovqatga sarflaydi - 2016-yilda u 47,3 foizni tashkil qilgan [6].

“Yashil” iqtisodiyot sharoitida kapital bozorining o‘rni borasida olib borilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonning “yashil” siyosat dizayni shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning yashillashtirish jarayonlariga tijorat banklari tomonidan 2023-yil davomida 1-aprelga qadar ajratilgan kreditlar o‘z samarasini berib kelmoqda [7].

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan 2023-yil 1-aprelga qadar quyosh panellari sotib olish uchun ajratilgan kreditlar [8]

№	Bank nomi	Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar			Aholi xonadonlariga ajratilgan kreditlar		
		soni	mlrd. so‘mda	Quvvati (kWT)	soni	mlrd. so‘mda	Quvvati (kWT)
	Jami	91	160,3	12390	2704	67,3	6039
1	O‘zmilliybank	6	81,4	655	1	0,03	3
2	O‘zsanoatqurilishbank	4	25,6	7500	360	10,1	905
3	Asaka bank	1	11,4	1138	51	1,1	107
4	Agrobank	25	7,3	734	344	9,4	821
5	Ipoteka bank	4	12,5	55	139	3,1	278
6	Xalq banki	10	1,1	140	862	17,4	1619
7	Qishloq qurilish bank	4	1,1	56	205	5,3	504
8	Mikrokreditbank	10	4,5	467	723	19,8	1755
9	Turon bank	3	3,9	385	0	0,00	0
10	Aloqa bank	4	1,8	176	0	0,00	0

1-jadval tahliliy ma’lumotlariga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga 160,3 mlrd. so‘m miqdorda 91 ta hamda aholi xonadonlariga 67,3 mlrd. so‘mlik 2704 ta ajratilgan quyosh panellari bo‘lib, umumiy miqdorda 227,6 so‘mlik 2795 ta quyosh panellari sotib olish uchun kreditlar yo‘naltirilgan [9].

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, bugungi kunda kapital bozorining vazifalari kengroq nuqtai nazardan qaraladigan bo‘lsa, kapital bozorlari uzoq yoki cheksiz yetuklikka ega bo‘lgan moliyaviy aktivlar bozori sifatida resurslarni safarbar qilish va ularni samarali yo‘nalishlarga ajratishda juda muhim rol o‘ynaydi [10]. Demak, aytish mumkinki, mamlakatning iqtisodiy o‘sish jarayoni kapital bozorlari tomonidan osonlashtiriladi. Shunigdek, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlarini sharoitida yashil iqtisodiyotni shakllantirishga obyektiv ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini beradi [11].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Suleymanov I. ANTI-CRISIS FINANCIAL MEASURES DUE TO COVID-19: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF UZBEKISTAN //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 3. – С. 5.
2. Saloxov S. PROSPECTS OF IMPLEMENTATION OF “GREEN ECONOMY” //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 5-8.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.
4. Asqar, C., & Farhod, X. (2022). The profitability indicators of commercial banks in the republic of Uzbekistan and their modern state. *World Economics and Finance Bulletin*, 8, 141-148.
5. Сулейманов И. Р. СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА С РЕАЛЬНЫМ СЕКТОРОМ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //Журнал Инновации в Экономике. – 2022. – Т. 5. – №. 2.
6. Murtazaevich K. S. FOREIGN EXPERIENCE IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS INTO THE NATIONAL ECONOMY //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 22. – С. 101-107.
7. Холмаматов, Ф. К. (2021). РЕСПУБЛИКАМИЗ БАНК ТИЗИМИДА МУАММОЛИ КРЕДИТЛАРИНИНГ АМАЛИЙ ҲОЛАТИ ВА УЛАРНИ КАМАЙТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *Scientific progress*, 2(2), 488-495.
8. Saloxov S. “Yashil iqtisodiyot” ni joriy etish istiqbollari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – Т. 1. – №. 11-12.
9. Saparov A. D., Ganiev S. V. ISSUES OF FORMATION OF UZBEK ECONOMIC TERMINOLOGY //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 7. – С. 108-110.
10. Kholmamatov, F., Khannaev, S., & Ruzimorotov, O. (2021). Assessment Of The Competitive Environment In The Bank Market Of Uzbekistan Through "Bun" Indicator. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
11. Murtazaevich K. S., Vohidovich G. S. The Role Of Foreign Direct Investment In The Organization And Development Of An Innovation Cluster //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 22. – С. 244-249.

OILAVIY BIZNES MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLARI

Toshpo‘latov Murodulla Sobirjon o‘g‘li
BMA, bosh mutaxassisi

Oilaviy biznesni boshqarishda ham butun kichik tadbirkorlikdagi kabi muammolar mavjud. Lekin oilaviy firma rahbarining ishi shu bilan murakkablashadiki, u o‘z qarindoshlari o‘rtasida barcha asosiy masalalar bo‘yicha umumiy kelishuvga erishishi kerak. Turli fikrlar hamma vaqt kelishmovchilikka olib keladi, lekin ba‘zan ular uchun turtki berishi ham mumkin. Shuning uchun obyektiv qarorlar qabul qilish uchun emotsional omilni hisobga olish lozim.

Oilaviy biznesni boshqarish nuqtai nazaridan eng muhim kamchilik – xodimlarning professional emasligi. Korxonada ishida qatnashuvchi barcha qarindoshlar firmaga zarur bo‘lgan sohalarda yaxshi mutaxassislar bo‘lishi kamdan-kam holatlarda uchraydi. Ideal holat – savodli direktor, professional buxgalter, oilaning barcha a‘zolari mas‘uliyatli va malakali xodimlar, - bunday